


2020- yilning yanvar-avgust oylari uchun  
Navoiy viloyatida qurilish ishlari



2 658,6  
mlrd. so'm

97,5 %

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Navoiy viloyatida jami **2 658,6 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **97,5 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari  
hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo`lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo`linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2020- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 1539 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **108,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,2 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **108,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,1 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **109,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **43,7 %**) o'sishidir.



**Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)**


		holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.09.2019- yil	01.09.2020- yil	
		<b>Navoiy viloyati</b>	<b>1413</b>	<b>1539</b>
		<b>Navoiy sh.</b>	<b>429</b>	<b>420</b>
		<b>Zarafshon sh.</b>	<b>104</b>	<b>124</b>
		<b>tumanlar:</b>		
		<b>Karmana</b>	<b>221</b>	<b>254</b>
		<b>Konimex</b>	<b>27</b>	<b>39</b>
		<b>Qiziltepa</b>	<b>193</b>	<b>227</b>
		<b>Navbahor</b>	<b>165</b>	<b>184</b>
		<b>Nurota</b>	<b>99</b>	<b>98</b>
		<b>Tomdi</b>	<b>33</b>	<b>40</b>
		<b>Uchquduq</b>	<b>51</b>	<b>55</b>
		<b>Xatirchi</b>	<b>91</b>	<b>98</b>

Navoiy viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.09.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Navoiy sh. (27,3 %), Karmana (16,5 %) va Qiziltepa (14,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **520,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **65,5 %** ga kam bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **9,6 %** punktga kamayib, **19,6 %** ni tashkil etdi.


2020- yilning yanvar-avgust oylarida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zarafshon shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **65,4** % i yoki 2019- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **57,2** %), Navoiy shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **19,0** % i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,3** %), va Qiziltepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **7,3** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **69,5** % ) ga to'g'ri keldi.




## Qurilish ishlarining umumiylajmiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,0 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **7,7 %** punktga oshdi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **113,3 %** ni tashkil etgan holda **1 462,2 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **25,4 %** ni tashkil etdi yoki **675,5 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-avgustl oylariga nisbatan **105,3 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **523,7** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 134,9** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **19,7 %** va **80,3 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-avgust oylarida  
hududlar kesimida mulkchilik shakllari  
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 658,6</b>	<b>523,7</b>	<b>100,0</b>	<b>2 134,9</b>	<b>100,0</b>
Navoiy sh.	707,6	53,1	10,1	654,5	30,6
Zarafshon sh.	625,2	425,6	81,3	199,6	9,3
tumanlar:					
Karmana	259,1	6,7	1,3	252,4	11,8
Konimex	63,8	-	-	63,8	3,0
Qiziltepa	421,1	13,8	2,6	407,3	19,1
Navbahor	172,6	4,2	0,8	168,4	7,9
Nurota	126,7	3,1	0,6	123,6	5,8
Tomdi	45,9	8,5	1,6	37,4	1,8
Uchquduq	38,7	3,0	0,6	35,7	1,7
Xatirchi	197,9	5,7	1,1	192,2	9,0

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-avgust

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 69,0 % i yoki **1 834,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

69,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **461,5** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 25,2 % ni tashkil etdi

25,2 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **807,3** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 44,0 % ni tashkil etdi.

44,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **565,5** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 30,8 % ni tashkil etdi.


30,8 %



**2020- yilning yanvar-avgust oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sish sur‘ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)</b>
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 658,6</b>	<b>97,5</b>	<b>1834,3</b>
Navoiy sh.	707,6	98,4	632,8
Zarafshon sh.	625,2	99,9	104,6
tumanlar:			
Karmana	259,1	99,6	203,6
Konimex	63,8	100,0	18,3
Qiziltepa	421,1	99,9	383,4
Navbahor	172,6	100,1	161,4
Nurota	126,7	100,0	124,7
Tomdi	45,9	100,0	14,8
Uchquduq	38,7	100,0	33,0
Xatirchi	197,9	78,0	157,7

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajjni qo'shgan holda

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari*ulushi, % da*

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi



## Binolar va inshootlar qurilishi


Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **18,7 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,9 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,9 %** punktga ko`payib, **48,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,0 %** punktga kamayib, **33,1 %** ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*


Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxona va mikrofirmalar



Norasmiy sektor



2019- yil

yanvar-avgust


2020- yil

yanvar-avgust

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **26,8 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **10,8 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **73,2 %** (10,8 % punktga ko`payish) ni tashkil etdi.



**2020- yil  
yanvar-avgust**

## **Navoiy viloyatida qurilish ishlari**


13



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan **19,6 %** punktga kamaydi va **17,3 %** ni tashkil etdi. Qolgan **82,7 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan **19,6 %** punktga ko`paydi.

*ulushi, % da*





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-avgust oylarida**

*mldr. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
<b>Navoiy viloyati</b>	<b>2 658,6</b>	<b>2 039,2</b>	<b>334,7</b>	<b>284,7</b>
Navoiy sh.	707,6	539,8	82,1	85,7
Zarafshon sh.	625,2	505,4	44,5	75,3
tumanlar:				
Karmana	259,1	197,6	29,0	32,5
Konimex	63,8	52,8	10,5	0,5
Qiziltepa	421,1	283,2	85,4	52,5
Navbahor	172,6	149,3	12,4	10,9
Nurota	126,7	111,9	7,0	7,8
Tomdi	45,9	23,5	12,8	9,6
Uchquduq	38,7	28,2	6,7	3,8
Xatirchi	197,9	147,5	44,3	6,1

\*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




**Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari**

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da




Bino va inshootlar qurilishi,  
jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlaringin umumiy hajmida eng yuqori ulush Nurota tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 88,3 % i yoki **111,9** mlrd. so'm), shuningdek, Navbahor tumanı (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 86,5 % i yoki **149,3** mlrd. so'm), Konimex tumanı ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 82,7 % i yoki **52,8** mlrd. so'm), yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 27,9 % i yoki **12,8** mlrd. so'm), Xatirchi tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 22,4 % i yoki **44,3** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmidan 20,3 % yoki **85,4** mlrd. so'm) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,  
jamiga nisbati, % da**




**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,  
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiylajmida eng yuqori ulush Tomdi tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 20,9 % i yoki **9,6** mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 12,5 % i yoki **52,5** mlrd. so'm), Karmana tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmining 12,5 % i yoki **85,7** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo`limi

Tel.: 71 202-84-46;

79 223-54-73